



O'ZBEKISTONDA XOTIN QIZLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA KO'RILGAN CHORA TADBIR VA QILINGAN ISHLAR XUSUSIDA (BUXORO VILOYATI XUSUSIDA)

Abduqodir Qahhorov

BuxDU, (PhD) dotsent Yusupova M.O'

BuxDU, 1-kurs magistranti

Kutubxona faoliyati kafedrasida dotsenti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-may 2026 yil
Ma'qullandi: 5-may 2026 yil
Nashr qilindi: 6-may 2026 yil

KEY WORDS

Xotin-qizlar huquqi, gender tengligi, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, bandlik, ayollar daftari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilik asoslari hamda amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan ishlar, ijtimoiy himoya, bandlikni ta'minlash va gender tengligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar yoritiladi.

Bugungi kunda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar tobora kengayib bormoqda. Ular ta'lim olish, zamonaviy kasblarni egallash, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish hamda davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kabi sohalarda teng huquq va sharoitlarga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqdalar. Shu bilan birga, bu imkoniyatlardan samarali foydalanish, barkamol shaxs bo'lib yetishish va jamiyatda o'z o'rnini topish jarayoni ko'p jihatdan oiladagi tarbiya va muhitga bog'liqdir. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so'ng o'zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o'z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta'minlovchi, hal qiluvchi omil bo'lgan inson kamolotida oilaning tutgan o'rnini beqiyosdir ¹. Oilada esa xotin-qizlarning alohida va muhim o'rnini bor. Zero, jamiyatning ertangi kuni bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda ayol nafaqat oila chirog'i, balki yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantiruvchi ilk murabbiydir.

Hozirgi kunda davlatimizda barcha sohalarda keng ko'lamlislohotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadri, xususan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Ayniqsa, so'nggi yillarda ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda sohaga oid 40 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"², deb belgilab qo'yildi. Bu esa xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini va ularning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamladi. Mazkur konstitutsiyaviy norma amalda xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratish orqali o'z ifodasini topmoqda. Xususan, ayollarning ta'lim olish huquqi kengaytirilib, ular uchun oliy ta'lim muassasalarida alohida

¹ G. B. Shoumarov, Haydarov, N. A. Sog'inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova "Oila psixologiyasi" Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma, T.: «Sharq», 2010. - 8 b.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.

kvotalar ajratilmoqda, davlat grantlari va imtiyozli kreditlar orqali o'qish imkoniyatlari oshirilmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash maqsadida kasb-hunarga o'qitish markazlari faoliyati yo'lga qo'yilib, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Bu boradagi islohotlarning amaliy samarasi hududlar, xususan, qadimiy va navqiron Buxoro viloyati misolida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish quyidagi hujjatlar bilan mustahkamlangan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun
- "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun

Buxoro viloyatida ham ushbu qonunlar ijrosini ta'minlash maqsadida Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollari tizimi yo'lga qo'yildi. Bu tizim har bir xonadonga kirib borish va muammolarni "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida hal qilish imkonini bermoqda. Ushbu qonunlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash va ularni himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu qonunlar asosida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini, ularning sha'ni, qadr-qimmatini yanada mustahkamlanib bormoqda. Respublikamiz viloyatlaridagi barcha xotin-qizlarga alohida-alohida e'tibor berib borilmoqda.

Shu jumladan: Buxoro viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash

Viloyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda:

1. "Ayollar daftari" tizimi: Mazkur tizim orqali ehtiyojmand ayollarning muammolari individual hal qilinmoqda. Buxoro viloyatida o'tgan davr mobaynida minglab ayollarga tadbirkorlik uchun imtiyozli kreditlar ajratildi va moddiy yordamlar ko'rsatilib borildi. Ushbu tizim ayollarni jamiyatda o'z o'rnini egallashda, moddiy ahvolini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2. Bandlikni ta'minlash: Viloyatdagi hunarmandchilik maktablari (zardo'zlik, ganchkorlik, gilamchilik) ayollar bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, Buxoro shahri va G'ijduvon tumanida "ustoz-shogird" an'anasi asosida xotin-qizlarning daromad manbalari shakllantirilmoqda.

3. Ta'limga e'tibor: Magistratura bosqichida tahsil olayotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari davlat tomonidan qoplab berilishi buxorolik talaba qizlar uchun ham katta imkoniyat bo'ldi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga ega bo'lsa, bu oila bilimli, madaniyatli bo'ladi"³.

Bundan tashqari, Buxoro viloyatida xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida kasb-hunar o'rgatish kurslari tashkil etildi. Davlatimizda yaratib berilayotgan bunday sharoitlar barcha sohalarda ayollarning nufuzini oshirib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda, xususan Buxoro viloyatida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ayollarning

³ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xotin-qizlariga bayram tabrigi. 2022-yil 7-mart. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 8-mart soni.

jamiyatdagi rolini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish nafaqat huquqiy, balki ma'naviy vazifadir. Buxoro viloyatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ayollarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni bilimli va mustaqil qilishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlar natijasida o'z huquqini anglagan, bilimli va ijtimoiy faol buxorolik ayollar bugun viloyat iqtisodiyoti va ma'naviyatining tayanch ustunlariga aylangan. Zero, ayoli e'zozlangan yurtning kelajagi nurli, oilasi mustahkam bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. Shavkat Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.T. “O'zbekiston”-2024
3. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston xotin-qizlariga bayram tabrigi. 2022-yil 7-mart. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2022-yil 8-mart soni.
4. G'.B. Shoumarov, Haydarov, N. A. Sog'inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova “Oila psixologiyasi”. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma, T.: «Sharq», 2010. – 296 b.

